

## Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish buyicha

### SHARTNOMA № K-25

**2022-yil 17-noyabr**

**Farg'ona shahri**

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Farg'ona shahar Maktabgacha ta'lif bo'limi nomidan rahbar N.A.Irgasheva (kelgisida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi **«Master na chas» MCHJ** (keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar Butaboev.Z.B. ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

#### **1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Farg'ona shahar Maktabgacha ta'lif Bo'limi tasarrufidagi 16-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti inshoatini ta'mirlash loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

#### **2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hujjatlariga asosan QQS ni o'z ichiga olgan holda jami 22 500 000 (yigirma ikki million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mayjud bulganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

#### **3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

#### **4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

4.1. «Buyurtmachi» oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar 30 kun muddatda to'liq yakunlanishi kerak.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

#### **5. TOMONLARNI XUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shaki-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

## **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiyligi summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Penya to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

## **7. FORS-MAJOR HOLATLARI**

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib belmas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## **8. QO'SHIMCHA SHARTLAR**

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuviga bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa iqtisodiy masalalar bo'yicha sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 2022 yil «31» dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## **X. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR**

10.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

10.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

10.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xi洛f ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday

turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagи harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalg qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

10.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

10.5. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## XI. Nizolarni hal qilish tartibi

11.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'tasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa, qonun hujjatlarda belgilangan tartibda "Buyurtmachi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

## 9. TOMONLARNI HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

### Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Pudratchi»

**«Master na chas» mchj**

Manzil:Farg'ona shaxar Tabassum 21-a uy

Tel./Faks +998 90 562 09 99

x/r 20208000305078614001

Bank nomi "Xamkor BANK" ATB Quvasoy bo'limi  
MFO; 01003 STIR 306431306 IFUT(okonx)

«Buyurtmachi»

Fargona shaxar Maktabgacha ta'lim bo'limii

Manzil: Fargona shaxar Nurafshon ko'chasi 15uy

Tel./faks 73 244 91 88

Shhv

100022860304017091100251065

Tashkilotning STIRi 305153264

IFUT(okonx) 85100

Farg'ona shaxri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

x/r 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining

STIR: 201122919

Buyurtmachi

rahbari

N.A.Irgasheva

(lavozimi)  
(F.I.O.)

Rahbar

Butaboev.Z.B.

(lavozimi) (F.I.O.)





Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni  
skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	NARGIZA IRGASHEVA ABDUKAXAROVNA
Imzolangan sana	15.11.2022 17:35
Hujjat kodi	<b>TX6210261255</b>
Hulosa kodi	<b>DE6216318207</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

DE6216318207

**1. Loyihaning turi : Sharhnomा**

**2. Loyihaning nomi: Master na chas 16**

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 15.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Fargona shaxar  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**S.A.RAXIMOV**

15.11.2022